

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**



**YEVROSIYO TADQIQOTLARI  
FANINING O‘QUV DASTURI**

**Bilim sohasi:** 300000 – Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot  
**Ta‘lim sohasi:** 310000 – Ijtimoiy va xulq atvorga mansub fanlar  
**Mutaxassislik:** 70310205 - Xalqaro munosabatlar va tahlil: Yevropa va Osiyo tadqiqotlari

Tashqi siyosat va xalqaro iqtisodiy  
munosabatlar instituti direktori




G'.Arifjanov

Xalqaro munosabatlar kafedrasini mudiri



S.Bo'ronov

ARM boshlig'i



M.Yuldasheva

Fan/modul kodi YOT1104	O'quv yili 2025-2026	Semestr 1	Kreditlar 4	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Yevrosiyo tadqiqotlari	48	72	120
2.	<p style="text-align: center;"><b>I. Fanning mazmuni</b></p> <p><b>Fanning maqsadi</b> - Yevrosiyo geosiyosiy makonining tarixiy shakllanishi va uning zamonaviy jahon siyosatiga ta'sirini tushuntirish, Yevrosiyoni o'rganish uchun bir nechta nazariy asoslar va konsepsiyalarni ko'rib chiqish (realizm, regionalizm, konstruktivizm, sivilizatsion tahlil va postkolonial yondashuvlar kabi), mintaqaning strategik qiymati, shu bilan birga, uning madaniy gibridligi, diniy xilma-xilligi va sivilizatsiyaviy ziddiyatlarini o'rganish, Sharq va G'arb, Rossiyaga asoslangan Yevrosiyochilik va boshqa sivilizatsion qarama-qarshiliklar haqidagi hukmron narrativlarni qayta ko'rib chiqish (dekonstruksiyalash), moddiy manfaatlar (energiya, infratuzilma, xavfsizlik) va g'oyaviy loyihalarning (yumshoq kuch, xotira siyosati, sivilizatsiya ritorikasi) o'zaro ta'sirini o'rganishdan iborat.</p> <p><b>Fanning vazifasi:</b> 1. Bilim va konseptual tushuntirish: Yevrosiyoni ham geosiyosiy, ham qurilgan sivilizatsion makon ekanligini, mintaqadagi integratsion modellarining ko'pligi va ularning mafkuraviy asoslarga ega ekanligini tushuntirish. 2. Nazariy va tahliliy ko'nikmalar: Xalqaro munosabatlar nazariyalarini Yevrosiyo davlatlari munosabatlarida qo'llash, Yevrosiyoni chuqur anglash uchun alternativ nazariya va yondashuvlarni ko'rib chiqish (sivilizatsion tahlil, post-kolonializm, post-strukturalizm, tanqidiy nazariya), diskursiv qudrat nima ekanligini o'rgatish. 3. Tanqidiy fikrlash va amaliy ko'nikmalar: Mintaqaviy tashabbuslarni (YEOII, BRI, ShHT) nafaqat strategik, balki normativ loyihalar sifatida ham tanqidiy baholash, mintaqadagi ta'sir vositalari bo'lmish yumshoq kuch, din, madaniyat va tilning ahamiyatini tushuntirish.</p> <p><b>Xorij tajribasiga muvofiqligi:</b></p> <p>Mazkur fan dasturi xalqaro tan olingan reytinglarda birinchi top 300 talik ro'yxatga kiruvchi Leyden Universiteti (QS 141) xorijiy tajribasini inobatga olgan holda takomillashtirildi.</p> <p><a href="https://studiegids.universiteitleiden.nl/courses/135640/eurasia-and-urasianisms-concepts-and-contentions">https://studiegids.universiteitleiden.nl/courses/135640/eurasia-and-urasianisms-concepts-and-contentions</a></p>			

## **II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**

### **Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**1-mavzu. Yevrosiyo makoni. Konsepsiyalar, chegaralar va turli talqinlar.**

Yevrosiyo haqidagi turli geografik, tarixiy va sivilizatsiyaviy tushunchalar. Uning obyektiv haqiqat sifatida mavjudligi yoki geosiyosiy tasavvur ekanligi haqidagi munozaralar.

**2-mavzu. Yevrosiyo tadqiqotlariga oid nazariy yondashuvlar.**

Realizm. Neoklassik realizm. Konstruktivizm. Ingliz maktabi. Sivilizatsiya nazariyasi. Tanqidiy geosiyosat. Alternativ nazariy yondashuvlar. Post-strukturalizm.

**3-mavzu. Yevrosiyo tarixiy nuqtayi nazardan: Imperiyalar va Ipak yo'li.**

Mintaqaning imperial o'tmishi (rus, usmonli turklar, xitoy) va uning zamonaviy aloqalariga ta'siri. Imperial merosning zamonaviy siyosatni shakllantirishga bo'lgan ta'siri.

**4-mavzu. Rossiyaning Yevrosiyo bo'yicha qarashlari: MDH dan Katta Yevrosiyogacha.**

Rossiyaning mintaqaviy loyihalari: MDH, YOII, KXSHT va Katta Yevrosiyo narrativlari. Rossiyaning mintaqadi roli. Yevrosiyochilik.

**5-mavzu. Xitoyning Yevrosiyoga bo'lgan yondashuvi: Bir makon, bir yo'l (BRI).**

Xitoy infrastruktura loyihalari. Savdo. BRI ortidagi siyosiy maqsadlar. BRI ning strategik va normativ tabiati bahsi.

**6-mavzu. Yevrosiyo iqtisodiy ittifoqi (YOII): maqsadlar va kamchiliklar.**

Institutsional tuzilma. Integratsiya maqsadlari. Ichki muammolar. Mintaqaviy integratsiya modellarining qiyosiy muhokamasi.

**7-mavzu. Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (ShHT): xavfsizlik va muammolar.**

Xavfsizlik sohasida hamkorlik. G'arbga qarshi diskurs. ShHTning samaradorligi va maqsadlarining tanqidiy tahlili.

**8-mavzu. Yevrosiyo siyosatidagi sivilizatsion diskurs.**

Yevrosiyochilik. Turkizm. Sinosentrizm. O'zlik loyihalari. Siyosiy va madaniy regionalizm. Diskursiv qudrat.

**9-mavzu. Yevrosiyo integratsiyasining me'yoriy o'lchovlari**

BRI, YOII ShHT kabi loyihalarning muqobil me'yorlarni (masalan, suverenitet, ko'p qutblilik) qanday targ'ib qilishi. Yevrosiyoda yuzaga kelayotgan tartibot. Mintaqaviy tashabbuslardagi me'yoriy qarashlarning muhokamasi.

**10-mavzu. Yevrosiyoda energiya, infratuzilma va bog'liqlik.**

Quvurlar siyosati, transport koridorlari (O'rta koridor, OBOR), raqamli

bog'liqlik. Ta'sir ko'rsatishning iqtisodiy vositalari

**11-mavzu. Yevrosiyoda madaniy siyosat: til, o'zlik va xotira. Yevrosiyoda yumshoq kuch strategiyalari: madaniyat, media va din**

Yevrosiyo bo'ylab siyosatda til siyosati, tarixiy xotira va o'ziga xoslik narrativlari qanday qo'llanilishi. O'tmish va hozirdagi qarama-qarshi narrativlar. Qozog'iston, Rossiya va Turkiyada tarix ta'limi, yodgorlik yoki milliy kunlarning o'rni bo'yicha qiyosiy misollar. OAV. Madaniy diplomatiya. Yumshoq kuch siyosati raqobati.

**12-mavzu. Yevrosiyoda taraqqiyot va zamonavylilik mafkuralari**

Hukmron elitaning rivojlanish modellari. "Suveren demokratiya". "Sharqona qadriyatlar". Liberal demokratiyaga nisbatan Yevrosiyo mamlakatlari shakllantirishi mumkin bo'lgan muqobil modellar.

### **III. AMALIY MASHG'ULOTLARI BO'YICHA KO'RSATMA VA TAVSIYALAR**

Yevrosiyo tadqiqotlari fanidan amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Yevrosiyo makoni. Konsepsiyalar, chegaralar va turli talqinlar.
2. Yevrosiyo tadqiqotlariga bo'lgan nazariy yondashuvlar.
3. Yevrosiyoda sivilizatsion geosiyosat.
4. Yevrosiyo tarixiy nuqtai nazardan: Imperiyalar va Ipak yo'li.
5. Rossiyaning Yevrosiyo bo'yicha qarashlari: MDH dan Katta Yebroosiyogacha.
6. Xitoyning Yevrosiyoga bo'lgan yondashuvi: Bir Makon Bir Yo'l (BRI).
7. Yevrosiyo iqtisodiy ittifoqi (YOII): maqsadlar va kamchiliklar.
8. Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (ShHT): xavfsizlik va muammolar.
9. Yevrosiyo siyosatidagi sivilizatsion diskurs.
10. Diskursiv qudrat va geosiyosat.
11. Yevrosiyo integratsiyasining me'yoriy o'lchovlari
12. Yevrosiyoda energiya, infratuzilma va bog'liqlik.

### **IV. MUSTAQIL TA'LIM VA MUSTAQIL ISHLAR**

**Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:**

- o'tilgan mavzuni chuqur o'rganishlari uchun darslik, o'quv materiallari bilan faol ishlash;
- ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar va imtihonlarga oldindan tayyorgarlik ko'rish, vaqtdan unumli foydalanish;
- fan (modul)lar bo'yicha mustaqil ta'lim topshiriqlarini belgilangan muddatlarda taqdim etishi;
- mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishda plagiat (ko'chirmakashlik)ga yo'l qo'ymasligi;
- kichik guruhlarda hamkorlikdagi mustaqil ta'lim topshiriqlarini

bajarishda jamoaning umumiy maqsadiga mos harakat qilishi, o'ziga yuklatilgan vazifalarni o'z vaqtida bajarishi.

*Mustaqil ta'limni tashkil etishda fanning xususiyatini inobatga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:*

- mavzu yuzasidan tahliliy ma'lumot (esse) tayyorlash;
- kurs ishi (loyihasi)ni bajarish;
- aniq mavzu bo'yicha tahliliy taqdimot (prezentatsiya) tayyorlash;
- berilgan muammoni keng tahlil qilish, unga ta'rif va xulosalarni berish;
- amaliyotdagi mavjud muammoning yechimini topish, test, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash orqali loyihalar ishlash ko'nikmasini shakllantirish;
- ilmiy maqola, tezislar va ma'ruza tayyorlash.
- Amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish va uy ishlarini bajarish.
- Mustaqil topshiriqlar yuzasidan taqdimot tayyorlash
- Elektron platformalarda infografikalar yaratish
- Mavzu yuzasidan ilmiy maqola tayyorlash, esse yozish

Shuningdek, **“Yevrosiyo tadqiqotlari”** fanidan mustaqil ish sifatida quyidagi mavzulardan berilishi tavsiya etiladi:

1. Rossiya Yevrosiyochiligi: mafkura yoki amaliyot?
2. Yevrosiyoda kibernetika xavfsizlik va raqamli suverenitet
3. Kaspiy mintaqasi geosiyosiy chorraha sifatida
4. Afg'oniston va Yevrosiyo xavfsizligi kelajagi
5. Yevrosiyo energiya koridorlarida strategik raqobat
6. Russia Today (RT), CGTN, TRT World: raqobatdosh media narrativlar
7. Turkiy davlatlar tashkilotining Yevrosiyo geosiyosatida tutgan o'rni.
8. Yevrosiyoda energiya va infratuzilma
9. Madaniy diplomatiya Yevrosiyoda ta'sir o'tkazish vositasi sifatida
10. Yevrosiyo regionalizmga nisbatan konstruktivist yondashuvlar
11. Ta'lim diplomatiyasi: grantlar va universitetlar yumshoq kuch sifatida
12. Yevrosiyoda taraqqiyot va zamonaviylik mafkuralari
13. COVID-19 va Yevrosiyoda mintaqaviy hamkorlik
14. Yevrosiyoda sivilizatsion diskurs
15. Yevrosiyo mintaqaviy tartibotida Eronning roli
16. Markaziy Osiyoning BRI dagi roli: imkoniyat va qaramlik bahslari
17. Postsovet Yevrosiyosida til siyosati va milliy o'ziga xoslik
18. Yevrosiyoda realizm va qudratli kuchlar raqobati
19. Yevrosiyo uchun kelajak senariylari: integratsiya yoki tarqoqlik?
20. Yevrosiyoda imperialistil/kolonial meros.
21. Yevrosiyo va global iqlim inqirozi: mintaqaviy javoblar
22. Yevrosiyo tarixiy nuqtayi nazardan: Imperiyalar va Ipak Yo'li
23. Yevrosiyo mintaqasida migratsiya va chegara siyosati
24. Yevrosiyoda Janubiy Kavkazning geosiyosiy roli
25. Rossiya, Xitoy va Turkiyaning Markaziy Osiyodagi yumshoq kuch

	<p>strategiyalari</p> <p>26. Post-kolonializm va Yevrosiyo</p> <p>27. AQSh va Xitoyning Yevrosiyodagi geosiyosiy qarashlarining qiyosiy tahlili</p> <p>28. Yevrosiyoda madaniy siyosat: til, o'zlik va xotira.</p> <p>29. Markaziy Osiyoda suv va atrof-muhitni boshqarish siyosati</p> <p>30. Yevrosiyo o'ziga xoslik siyosatida "an'anaviy qadriyatlar" ning o'rni.</p> <p>31. Sivilizatsiya tahlili va Yevrosiyo o'zligi</p> <p>32. Tanqidiy geosiyosat va Yevrosiyoni makonlashtirish</p> <p>33. Yevrosiyoda regionalizm va unga bog'liq nazariyalar</p> <p>34. Yevrosiyo kontekstida qaramlik nazariyasi va neokolonializm</p> <p>35. Orientalizm nazariyasi va G'arbda Sharq haqida shakllangan asosiy diskurslar.</p> <p>Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan taqdimot tayyorlash tavsiya etiladi.</p>
3.	<p><b>V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</b></p> <p><b>Talaba bilishi kerak:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Yevrosiyoni geosiyosiy, madaniy va sivilizatsiyaviy tuzilma sifatida tushunadi va kontekstlardagi ta'riflarning farqiga borishi; tashqi siyosat va mintaqaviy tashabbuslarni sharhlash uchun realistik, konstruktivistik, postkolonial va tanqidiy nazariyalardan foydalana olishi; tarixiy xotira, din, til va mafkura mintaqaviy tartibni qanday shakllantirishi haqida <i>tasavvurga ega bo'lishi</i>;</li> <li>• Tanqidiy fikrlash va nazariy asoslashni ko'rsatadigan yozma va og'zaki ishlarni yaratish <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi</i>;</li> <li>• o'z fikrini asosli va dalillarga tayanib ifodalash, mantiqiy fikrlashni rivojlantirish; tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilishga yo'naltirilgan yondashuvni egallash, axborot texnologiyalari va ilmiy-tadqiqot usullaridan samarali foydalanishni <b>bilishi va ulardan foydalana olishi kerak.</b></li> </ul>
4.	<p><b>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• ma'ruzalar;</li> <li>• interfaol keys-stadilar;</li> <li>• amaliy mashg'ulotlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);</li> <li>• guruhlarda ishlash;</li> <li>• taqdimotlarni qilish;</li> <li>• individual loyihalar;</li> <li>• jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.</li> </ul>
5.	<p><b>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, mustaqil ta'lim bo'yicha hamda joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ish va/yoki og'zaki imtihonni topshirish.</p>

6.

**VIII. ASOSIY VA QO'SHIMCHA O'QUV ADABIYOTLAR  
HAMDA AXBOROT MANBALARI**

**Asosiy adabiyotlar**

1. Laruelle, M. (Ed.). (2015). *Eurasianism and the European Far Right: Reshaping the Europe-Russia Relationship*. Lexington Books.
2. Pizzolo P. (2019) Eurasianism: An ideology for the multipolar world.
3. Libman, A., & Vinokurov, E. (2024). *The Elgar Companion to the Eurasian Economic Union*. Edward Elgar Publishing.

**Qo'shimcha adabiyotlar**

4. Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston. - Toshkent: O'zbekiston, 2024.
5. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz. 6-jild. - Toshkent: O'zbekiston, 2023
6. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda erkin va faravon yashaylik. 5-jild.- Toshkent: O'zbekiston, 2023.
7. Mirziyoyev Sh.M. Inson qadri, uning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlar uchun. -Toshkent: O'zbekiston, 2022.
8. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. - Toshkent: O'zbekiston, 2022.
9. Dugin, A. (2012). *The fourth political theory*. Arktos Media.
10. Huntington, S. P. (1996). *The clash of civilizations and the remaking of world order*. Simon & Schuster.
11. Toal, G. (2017). *Near abroad: Putin, the West and the contest over Ukraine and the Caucasus*. Oxford University Press.
12. Lo, B. (2015). *Russia and the new world disorder*. Brookings Institution Press.
13. Neumann, I. B. (1999). *Uses of the other: "The East" in European identity formation*. University of Minnesota Press.
14. Said, E. W. (1978). *Orientalism*. New York: Pantheon Books.

**Scopusdan maqolalar**

15. Lieven, D., & Bassin, M. (2006). Geographies of Imperial Identity. In *The Cambridge History of Russia Vol. I*
16. Jersild, A. (2014) 'The Shanghai Cooperation Organization and Eurasian geopolitics: new directions, perspectives, and challenges', *Central Asian Survey*, 33(4), pp. 569–570. doi: 10.1080/02634937.2014.982913.
17. Johnson, C. and Derrick, M. (2012) 'A Splintered Heartland: Russia, Europe, and the Geopolitics of Networked Energy Infrastructure', *Geopolitics*, 17(3), pp. 482–501. doi: 10.1080/14650045.2011.595439.

18. İşeri, E. (2010) 'Eurasian geopolitics and financial crisis: transforming Russian–Turkish relations from geopolitical rivalry to strategic cooperation', *Journal of Balkan and Near Eastern Studies*, 12(2), pp. 173–186. doi: 10.1080/19448951003791823.

**Axborot manbalari**

19. [www.gov.uz](http://www.gov.uz) – O‘zbekiston Respublikasi hukumat portali.

20. [www.lex.uz](http://www.lex.uz) – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.

**Ilmiy bazalar:**

21. <https://www.jstor.org/>

22. <https://www.tandfonline.com>

23. <https://www.sciencedirect.com/>

7. Fanning o‘quv dasturi “Xalqaro munosabatlar” kafedrasida ishlab chiqilgan va 2025-yil 18-iyundagi 21-sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan.

O‘quv dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2025-yil 28-iyundagi 11-sonli bayoni bilan tasdiqlangan.

8. **Fan/modul uchun mas’ul:**

Bo‘ronov S.M. – Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti “Xalqaro munosabatlari” kafedrasida dotsenti, s.f.d.

Yunusov Sh.M. – Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti “Xalqaro munosabatlari” kafedrasida stajyor-o‘qituvchisi

9. **Taqrizchilar:**

S.A.Jo‘rayev – Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti “Xalqaro munosabatlari” kafedrasida professori, s.f.d.

E.S.Sultonova. – JIDU “Xalqaro munosabatlar” kafedrasida professori, s.f.d.